



UDK: 83.9

Nasiba ABDUXOLIKOVA,
Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti v/b., PhD
E-mail: Sotsial.nauki@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida

JAMIYATNING AXBOROTLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING TA'LIM IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat axborotlashuvining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihat va xususiyatlari, uning talaba yoshlarga ta'siri yoritib o'tilgan. Axborotlashgan jamiyatga bilim manbai sifatida yondashilgan.

Kalit so'zlar. Axborot, Axborotlashgan jamiyat, axborot qadriyati tobelik, internet qaramlik.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ИНФОРМАЦИОННЫЙ ВЕК ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье описаны социально-экономические, культурологические аспекты и особенности публичной информации, ее влияние на студентов.

Ключевые слова. Информация, Информированное общество, Зависимость от ценности информации, Интернет-зависимость.

EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF YOUTH IN THE INFORMATION AGE OF SOCIETY

Annotation

This article discusses the socio-economic, cultural aspects and features of public information, its impact on student youth, and approaches the Informed Society as a source of knowledge.

Key words. Information, Informed Society, Information Value Dependence, Internet Addiction.

Kirish. Tarixan yozuvning paydo bo'lishi bilan axborot tarqatish, qabul qilish va saqlash sohasida ulkan imkoniyatlar yaratildi. Chunki, masofali onlayn aloqa qilish uchun axborot subyektlarining o'zaro belgi yoki signallari muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotni o'zga odamlarga yetkazish uchun ovozi signal va chiroqlar, hatti-harakatlar bilan onlayn bildirish imkoniyati shakllangan. Paleolit davriga oid qoyatosh tasvirlarda ibtidoiy odamlarning hayoti haqida ma'lumotlar qoldirilgan. Shu ma'noda ma'lumotlar matnli, grafikli, timsolli yoki signalli shakllarda rivoj topgan. Yozuvgacha bo'lgan vaqtda ibtidoiy odamlar ovoz chiqaruvchi asboblardan muayyan xabarni yetkazgan[1]. Shu bois axborotni yetkazish va saqlashning ilk shakli nutqning paydo bo'lishi bilan boshlangan. Natijada, inson borliqni o'zlashtirishda **xabardorlik quroliga** ega bo'lib, xo'jalik yuritish imkoniyatlari yengillashdi. Ayni vaqtda ma'lumotlarni to'plash, uni xotirada saqlash inson dunyoqarashini shakllantirdi. Bu hol inson turmush tarzi, tabiat va o'z borlig'ini o'zlashtirishga yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Ma'lumotlarni yozma matnli shaklining bir qator ijobiy va salbiy jihatlari mavjud: ma'lumotni o'qish muammosi uchun savodxonlik ham ijobiy va salbiy, yani begonalarning o'qiy olmasligi, ayni vaqtda o'qiy oladigan odamlarning kamligi bilan izohlanadi. Yozma matnlarni saqlash va muhofaza qilish muammosi ham uning axborotini namlik yoki yong'indan saqlashni talab etadi. Yozma matnlar ayni vaqtda hajm jihatidan ko'p joyni egallagan. O'rta asrlarga kelganda esa ma'lumotni yetkazishda elchilar davlatlarning munosabatlari, xukmdorlarning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasini "onlayn" yetkazgan. Harbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar "pochta kaptarlari" yoki olov yoqish orqali shaharga yetkazilgan. Shunday bo'lsa-da, nutq axborot tashuvchi muhim vosita edi. Chunki, nutq orqali odam u yoki bu gapga mazmun yuklab bilimni yetkazadi. Nutq ovoz belgilarida o'zgalari uchun zarur xabar bo'lib, qabul qiluvchi ijtimoiy borlikdagi muayyan fakt haqida ma'lumotga ega

bo'ladi. Analogik axborot tarixiga oid fikr-mulohazalarni respublikamiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan tadqiq etilgan[2].

Metodlar bo'limi. Insoniyat tarixida axborotlashuvning uchinchi bosqichi telegraf va telefon aloqasini o'rnatilishi bilan boshlangan, deb hisoblash mumkin. 1950 yillardan kirib kelgan Informatika fani insoniyat tarixida ulkan taraqqiyot davrini boshlab berdi. Chunki, axborotlashuvning o'ziga xos qonun-qoidalari, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bo'yicha qabul qilish, saqlash va qayta ishlash, tahrirlash ishida beqiyos yutuqlarga erishdi. Bu hol kompyuter qurilmasi bilan bevosita bog'liq inson tafakkurining yangi sarhadini ochadi. Kompyuter qurilmasining kashfiyoti bilan inson axborotlashuvi hayotning hamma tarmoqlariga kirib bordiki, odamzod uning yordamisiz ishlab chiqarish va o'z ehtiyojlarini qondira olmay qoldi. U shaxs hayotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida *ikkinchi xotira* rolini o'ynamoqda.

Axborotlashuv kibernetika fani bilan bog'liq holda elektron hisoblash texnologiyasi, boshqaruv tizimining avtomatlashtirish bilan axborotlashuv jarayonida yangi sifat jihatlarni shakllantiradi. Axborotning aniqligi, ob'yektivligi, chinligi, aktualigi, tushunarli bo'lishi bilan muayyan ma'naviy ehtiyojni qondirib, zaruriy **axborot qadriyatiga** aylanadi. Axborotlashuvda kompyuter texnologiyalarining ommalashuvi, shaxsiy elektron qurilmalarining rivoji tufayli ta'lim tizimi, ayniqsa multimedia texnologiyalari yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Kompyuter talabalar bilim doirasining kengayishidagi jihat va xususiyatlariga rus olimlari atroflicha batafsil tahlil va talqinlarini ochiqdantirgan[3].

Jamiyatning axborotlashuv jarayoni har bir avlodning o'ziga xos ijtimoiy va kasbiy yangi axborot munosabatlarining madaniy taraqqiyot ko'rsatkichi sifatida muomalaga kiritilmoqda. Ayniqsa, axborotlashuv jamiyat mehnat resurslarining iqtisodiyotda foyda olish uchun o'ta iqtisodiy imkoniyatlarni beradi. Fikrimizcha, kompyuter texnologiya-

larining shakllanishi axborotlarni saqlash, uzatish va qabul qilish bilan qog'ozga bo'lgan ehtiyojni jiddiy tejankorligini ta'minladi. Natijada, qog'oz ishlab chiqarishda sanoatning tabiatdagi o'simlik va hom ashyoga bo'lgan xarajatlarini jiddiy qisqartirdi.

Natijalar bo'limi. Jamiyatning axborotlashuvi jarayoni ta'lim tizimi rivojini belgilashi xususida O. D. Raximov imkoniyat ma'nosida quyidagicha guruhlashtiradi:

"...jamiyatning tizimli va doimiy ravishda kengayib rivojlanib borayotgan ilmiy, ishlab chiqarish va insoniyatning boshqa turdagi faoliyati davomida bosma shaklda to'plangan intellektual salohiyatidan keng va faol foydalanish;

Fan ta'lim, ishlab chiqarishni axborot texnologiyalari asosida integratsiyalash orqali umumjamiyat ishlab chiqarish barcha sohalarni jadal rivojlantirish, insonning mehnat faoliyatini jismoniy mehnatdan aqliy mehnat tomon yo'naltirish, insonning barcha faoliyat turlarini intellektuallashtirish;

Axborot xizmatining yuksak darajaga ko'tarish, jamiyatning har qanday a'zosini ishonchli axborotlar manbasiga kirishi, foydalanish imkonining cheksizligi, taqdim etilayotgan materiallarning vizuallashtirish, ma'lumotlarning haqiqiyliigi va hayotiyliigi ta'minlash"da aks etadi[4].

Axborot nisbiy ravishda daxlsiz bo'lib, tashuvchining shaklidan qat'iy nazar o'zining mazmun mohiyatini saqlab qoladi. Axborotni olish kuzatish, tabiiy holda, tajribadagi hisobga ko'ra olinadi. Shuning uchun axborotni tajribagacha, tajriba vaqti va undan keyingi bochqichlarga bo'lish olimlar tomonidan qabul qilingan: pragmatik, semantik va sintaksis jihatlarini ajratib ko'rsatilgan[5].

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda axborotlashgan jamiyatning mazmun mohiyati aholining turmush tarzida elektron qurilma va o'zga mobil aloqalarni keng miqyosda qo'llash bilan ijtimoiy hayotga ta'sir etadi. Shu ma'noda biz muammoning taxlilida axborotlashgan jamiyatning yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqlarga qaramligining negizi sifatida yondashish ilmiy-uslubiy maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki axborotlashgan jamiyat odatda postindustrial tarixiy davrga xos sivilizatsiya sifatida axborot va bilimga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi yuzasidan uzoq tortishuvlardan so'ng olimlar yangi asr boshida kompyuterlashtirish va global axborot makonini ifodalash uchun axborotlashgan jamiyat taklifi bilan chiqqan bo'lsa-da, uning ta'rifi yuzasidan yakdil fikrga kelolmagan. Jumladan, muammo moliyaviy jihatdan jamiyatda bilim, axborot va axborot kommunikatsiyalarining yalpi ichki mahsulotda salmog'i, global axborot makonida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatiga erishish, jahon axborot resurslaridan emin-erkin foydalanishning beqiyos darajada o'sishi axborot jamiyati "Information society" ma'nosida ta'riflangan[6].

Munozara bo'limi. Darhaqiqat, postindustrial jamiyatni eng muhim xususiyati "Bilimlar jamiyati" ma'nosida ham postindustrial jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi imkoniyat ta'rifiga mos tushadi. Bizning ijtimoiy tobelik bilan bog'liq muammoning hal etilishida insonning axborot huquqi, uning bilim va ko'nikmalari, kompyuterlashgan jamiyatda yashashga qobilligining tushunilishi iqtisodiy va madaniy omil sifatida ahamiyat kasb etadi. Bilimlar jamiyati, aslida "Ilmiy jamiyat" tushunchasining o'zagida shaxsning ishonchli va tasdiqlangan, ob'yektiv keng qamrovli axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirib, uni tanqidiy tahlil va sifatli axborot tarqatishga ijtimoiy javobgarlikni o'rnatilgan ijtimoiy tuzum tushunish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, bilimga asoslangan jamiyat tushunchasi birinchisining sinonimi sifatida qo'llanilish jamiyatga yondoshuvda ikki uslub ekanligini qabul qilish mumkin. Chunki axborotlashgan jamiyatda eng muhim resurs

ma'lumot va bilim bo'lib, undan samarali foydalanish praktsiologik ko'nikma hisoblanadi[7].

Zamonaviy jamiyatning axborotlashuvi iqtisodiy yo'nalishda tabiiy ravishda "aqli jamiyat" tomon rivojlanmoqda. Chunki, iqtisodiy axborotlar jamiyatning mijoz va sheriklar bilan biznes faoliyatining tashkili, ayniqsa marketing va savdo tizimida nazoratning vazifalarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Iqtisodchi olimlar jamiyatning axborotlashuvining "CRM" tizimi quyidagi komponentlarga ega bo'lishi zarur deb hisoblaydilar:

- aloqa va mijozlar bazasini boshqarish;
- savdoni boshqarish;
- telefon orqali savdo (telemarketing);
- vaqtni boshqarish (taym-menejment);
- mijozlarga xizmat ko'rsatish (sotuvdan keyingi xizmat);
- yuqori rahbariyat uchun hisobot;
- boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro bog'lanish;
- ma'lumotlarni bir-biriga moslashtirish;
- elektron savdoni boshqarish (tashkilot veb-sayti bilan bog'lanish, mijozlar va sheriklar uchun portal);
- mobil savdoni boshqarish (kompyuter, noutbuk yoki uzoqdan foydalana olish) kabilarni korxonaning axborot ta'minotining muhim jihati sifatida ma'lumot omborini hosil etganlar[8].

Bizning tadqiqotlarimiz talaba yoshlarning ta'lim ma'rifatida sog'lom va jonli "ustoz-shogird", "ma'ruzachi va auditoriya"ning bevosita muloqoti shaklining yoshlar kasbiylashuvda ijobiyliigini tasdiqladi. Boz ustiga, masofali ta'limda talabalarning kompyuter orqali onlayn o'quv mashg'ulotlariga tuman va qishloq hududlaridan kirishi aloqa va elektr tarmog'idagi uzilishlar o'quv mashg'ulotlarining tashkili ni murakkablashtirdi. Shu ma'noda masofali ta'limning ijobiy tomonlaridan ko'ra salbiy jihatlari ham namoyon bo'ldi. Qolaversa, elektron qurilmalar orqali qabul kilingan yozma ishlarning qabuli talaba yoshlar bilimining nazoratida natijador usul emasligini ko'rsatdi. Shu bilan birga talabalarning umumiy ta'lim saviyasini yuksaltirishdan ko'ra alohida elektron qurilmasiga bog'liq holda talabalarning alohida qismi fanlar bo'yicha faollashuvi ham kuzatildi. Shu bilan birga biz onlayn ta'lim tizimida talaba yoshlarning o'quv mashg'ulotlarida ishtirokini to'la va sifatli ta'minlashda Internet trafiklarning arzonlashtirish zaruratini tasdiqladi. Zero, talaba yoshlar uchun o'quv mashg'ulotlardagi ishtiroki uchun bepul trafiklarga ehtiyoj borligini ta'kidlab o'tish dardkor.

Jamiyatni axborotlashuvining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihat va xususiyatlari yuzasidan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

Insoniyat tarixi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy tajribalarni ajdodlardan avlodlarga yetkazish, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda inson uchun munosib turmush shart-sharoitini hozirlashda axborotga bo'lgan ehtiyojni ortib borishida bilimlarni tarqatish, xabar qilish, saqlash, uni qayta ishlash va o'zga odamlarga yetkazish ijtimoiy sivilizatsiya darajasini kommunikatsiya asosida shakllantirgan;

Axborot bilimning muayyan shakli bo'lib, u ovozli nutq asosida ma'lumot shakliga ega bo'lgan bo'lsa, o'zaro muloqotda odamlar axborot almashuvi onlayn yoki oflayn shakllarda yuz bergan. Onlayn shaklda ovoz chiqaruvchi qurilmalar, shartlangan belgilar, imo-ishoralalar asosida yetkazilgan. Yozuvning kashf etilishi bilan insoniyat axborot dunyosi axborot makoni hosil bo'lib, xat orqali onlayn xabar berish imkonini tug'ildi. Natijada masofali axborot jamiyatni yangi bosqichini belgilab berdi.

Xulosa. XX asrning ikkinchi yarmidan axborot texnologiyalarining beqiyos taraqqiyoti jamiyat axborot darajasining inqilobiy o'zgartirdi. Kompyuterlarning axborot tizimiga kirib kelishi, internet axborot tizimi insoniyatning

real borlig'iga muqobil virtual axborot dunyosini ham bog'ladi. Jamiyatning axborotlashuvi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy hayotning barcha sohalarini rivojini belgilab beruvchi omil – axborot bilan bog'liq. Komyuter va Internet jamiyatni axborotlashuvi bilan birga inson hayotiga yangi axborot qadriyatlarini ham olib

kirdi. Internet global miqyosda kompyuter orqali davlatlararo, millatlararo chegarasiz makonda aloqaga chiqish, “barmoqlar bilan axborot dunyosiga kirish” bilan yangi ijtimoiy makonni yaratadi. Natijada, axborot eng qimmat va aktual biznes shakliga aylanib ulgurdi.

ADABIYOTLAR

1. Muminov A. O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –T.: Turon zamin ziyo. 013. –164 b.
2. Tursunov R. B. Ta'limda axborot kommunikasion texnologiyalarni qo'llash tendensiyalari// Academic research in educational sciences volume. – 2020. – № 1. – B.330. (324-331)
3. Onkov L. S., Titov V. M. Kompyuternyye texnologii v nauke i obrazovanii. – M.: Forum-Infra. 2013. – S. 12. (– 224 s.)
4. Raximov O.D. Axborotlashgan jamiyat ta'lim tizimida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: TATU Qarshi filiali. 2014. – B. 6.
5. История развития ИТ // <https://sites.google.com/site/inftehnology/it-kak-sistema/istoria-razvitia-it> (Data obrasheniya 06.12. 2021)
6. Информационное общество // https://dic.academic.ru/dic.nsf/fin_enc/23453 (Murojaat sanasi 07.12.2021)
7. Информационное общество и общество знаний // <https://ifap.ru/projects/observ.htm> (Murojaat sanasi 07.12.2021)
8. Korxonalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalar // https://uza.uz/uz/posts/korxonalarga-axborot-kommunikatsiya-texnologiyalarini-zhalb-qilish-qay-darazhada-imkoniyat-yaratadi_297771 (Murojaat sanasi 08.12.2021)